



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 17 iyul

№ 1914

Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga talabgorlarning kirish sinovlarida ishtirok etishga munosibliği to‘g‘risida

Sudyalar oliy kengashi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 68-moddasi, “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari, Sudyalar oliy kengashi Reglamentining 28-moddasi hamda Sudyalar oliy kengashining 2024 yil 17 iyuldagi xulosasiga muvofiq:

1. Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 1-ilovada ko‘rsatilgan **519 nafar** talabgorlar kirish sinovlarida ishtirok etishga munosib deb topilsin.

2. Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2-ilovada ko‘rsatilgan **511 nafar** talabgorlar kirish sinovlarida ishtirok etishga nomunosib deb topilsin.

3. Kirish sinovlarida ishtirok etishga munosib deb topilgan talabgorlar ro‘yxati Sudyalar oliy maktabining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinsin.

4. Kirish sinovlarida ishtirok etishga nomunosib deb topilganlarning hujjatlari Sudyalar oliy maktabiga talabgorlarni xabardor qilish uchun qaytarilsin.

5. Ushbu Qaror ijrosini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi direktori Isoqov Hoji-Murod Isroilovich zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov